

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING AYRIM QARORLARIGA
O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH, SHUNINGDEK BA’ZILARINI O‘Z KUCHINI
YO‘QOTGAN DEB HISOBLASH TO‘G‘RISIDA (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING “MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH
VA SOHANI RIVOJLANTIRISHNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH TO‘G‘RISIDA”
2017-YIL 28-IYULDAGI PQ-3160-SON QARORI)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ba’zi qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim, ilm-fan va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017-yil 16-sentabr,
731-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-sentabrdagi 731-son qaroriga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

Oldingi tahrirga qarang.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi 217-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2020-y., 09/20/217/0426-son)

2. Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 19-iyundagi 175-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2012-y., 25-son, 273-modda):

a) 2-ilovaning 10-bandidagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hududiy bo‘lim rahbari” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining hududiy bo‘limi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 3-ilovada:

10 va 22-bandlardagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

19, 20, 21 va 23-bandlardagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-noyabrdagi 918-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.11.2019-y., 09/19/918/4038-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi 217-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2020-y., 09/20/217/0426-son)

5. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2013-yil 7-oktabrdagi 274-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2013-y., 10-son, 71-modda) 4-ilovaning **6-bandidagi** “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlarining namunaviy nizomlarini va tarkiblarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2013-yil 14-dekabrda 329-son **qarorida** (O‘zbekiston Respublikasi QT to‘plami, 2013-y., 12-son, 93-modda):

a) **1-ilovaning** 34-bandidagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlari raislari” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘limlari rahbarlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) **2-ilovaning** 23-bandidagi “Ma’naviyat targ‘ibot markazi tuman (shahar) bo‘limi rahbari” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari rahbarlari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining “Davriy bosma nashrlarning majburiy nusxalari yuboriladigan muassasa va tashkilotlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2014-yil 31-yanvardagi 21-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 6-son, 66-modda) **ilovada**:

a) 13-banddagi “Muassasa va tashkilotlar nomi” ustunidagi “Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 14-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi binosini rekonstruksiya qilish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash to‘g‘risida” 2014-yil 23-dekabrda 359-son qarorining **8-bandidagi** “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi aholisining sog‘lom ovqatlanishi sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2015-yil 25-apreldagi 102-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2015-y., 17-son, 206-modda) **1-ilovada**:

a) yigirma uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

b) yigirma to‘rtinchi — o‘ttizinchi xatboshilari tegishli ravishda yigirma uchinchi — yigirma to‘qqizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

v) yigirma uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“A. Qodirov — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari”.

10. Vazirlar Mahkamasining “Ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2016-yil 12-avgustda 263-son qaroriga **ilovada**:

a) 3, 15 va 16-bandlarning “Mas’ullar” ustunidagi “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 14 va 17-bandlarning “Mas’ullar” ustunidagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

11. Vazirlar Mahkamasining “Xorazm Ma’mun akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 14-apreldagi 211-son qarorining (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 16-son, 275-modda) **12-bandidagi** “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

12. Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyati To‘rao‘rg‘on tumanida atoqli ma‘rifatparvar Is‘hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 13-apreldagi 208-son qaroriga [ilovada](#):

a) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. A. Qodirov — Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi rahbari”;

b) 14-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-sentabrdagi 731-son qaroriga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan ba‘zi qarorlari

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 1994-yil 8-iyundagi 288-son [qarori](#).

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” 2006-yil 25-avgustdagi PQ-451-son qarori)” 2006-yil 7-noyabrdagi 230-son qaroriga ilovaning [1-bandi](#).

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1040-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.11.2019-y., 09/19/918/4038-son; 15.04.2020-y., 09/20/217/0426-son)